



TANQIDIY NAZAR, TAHLILIIY TAFAKKUR VA INNOVATSION G'OYALAR



ADABIY TA'LIMDA IJODIY FIKRLASHGA YO'NALTIRUVCHI O'QUV TOPSHIRIQLAR

Mahmado'stov Abdulla

Toshkent amaliy fanlar universiteti

O'zbek tili va adabiyoti kafedrasida o'qituvchisi

Shodmonov Muhyiddin

Toshkent amaliy fanlar universiteti

O'zbek tili va adabiyoti yo'nalishi 1-kurs magistranti

abdullamahmadustov@gmail.com

[Tel:+998945774244](tel:+998945774244)

Annotatsiya. Tezkor axboratlashtirilgan zamonda o'quvchini ilm-fanga, ayniqsa, badiiy adabiyotga qiziqtirish, o'qitish, ma'naviy-axloqiy, ma'rifiy hamda adabiy-estetik qarashlarini yoshligidanoq shakllantirish juda muhim. Sababi har millat o'zining milliy qiyofasi, manaviyatini saqlab qolish uchun yosh avlodlarni zamonga mos, mustaqil fikrlashga undaydigan, badiiy asarni ma'nosini mustaqil tushuna olish, asardagi g'oyalarni anglab yetish hamda o'quvchilarni ijodkorlikka yo'naltiradigan yangi pedagogik texnologiyalar, topshiriqlarni ishlab chiqish har doimgidan ham bugun dolzarblik kasb etmoqda. Ushbu maqolada o'quvchilarning ijodiy fikrlashga yo'naltiruvchi o'quv topshiriqlaridan namunalari keltirilgan.

Kalit so'zlar: ijodiy fikrlash, kreativlik, topshiriq, ertak yaratish, qisqa tasnif, labirent.

Bugungi kunda adabiyot darslari orqali o'quvchilarning tafakkurini o'stirish har qachongidan muhim va dolzarbdir. O'quvchilarning tafakkur va tasavvurini o'stirishda kreativ fikrlashga yo'naltiruvchi o'quv topshiriqlarning o'rni beqiyosdir.

Kreativ [fikrlash](#), asosan, bu ikki narsaga bog'liq – tanqidiy fikrlash va ijodkorlik. Tanqidiy fikrlash aniq va oqilona fikrlashdir. Bu aniq va muntazam ravishda fikrlashni, boshqa narsalar qatorida mantiq va ilmiy fikrlash qoidalariga rioya qilishni o'z ichiga oladi. Ijodga kelsak, bu yangi va foydali g'oyalarni taklif qilish, muqobil imkoniyatlarni yaratishdir⁴³. Kreativ fikrlash bugungi yoshlar ega bo'lishi kerak bo'lgan muhim ko'nikmadir. Bu ko'nikma ularga doimiy tarzda va shiddat bilan o'zgarayotgan, oddiy savodxonlikdan tashqari “XXI asr” ko'nikmalariga ega ishchilarni taqozo etayotgan dunyoga moslashishga ko'maklashadi⁴⁴. Umuman olganda, bugungi o'quvchi kelajakda hatto hozir mavjud bo'lmagan sohalarda ishlashi, yangi muammolarni yangi texnologiyalar orqali hal etishi



TANQIDIY NAZAR, TAHLILIIY TAFAKKUR VA INNOVATSION G'OYALAR



kutilmoqda. O'quvchida kreativ fikrlash ko'nikmasini shakllantirish ularga tobora murakkablashayotgan mahalliy va global muammolarni noodatiy yondashuv orqali hal etish imkonini beradi. Shuning uchun kreativ fikrlaydigan o'quvchini yetishtirish uchun bugungi kun o'qituvchilaridan kreativlik talab etiladi. Kreativlik atamasiga shunday ta'rif beriladi, kreativlik (lot, ingl "create" - yaratish, "creative" yaratuvchi ijodkor) individni yangi g'oyalarni ishlab chiqarishga tayyorgarlikni tavsiflovchi hamda mustaqil omil sifatida iqtidorlikning tarkibiga kiruvchi ijtimoiy qobiliyatni ifodalaydi⁴⁵.

Adabiyot o'qitish amaliyotining ko'p asrlik tajribasi shuni ko'rsatadiki, biror odamning ish tajribasini shundog'icha o'rganib va o'zlashtirib bo'lmaydi⁴⁶. Balki dars jaroyonida tug'iladi. Yuqoridagi ko'rsatilgan fikrlar asosida quyidagi kuzatishlarimizni 5-sinf adabiyoti misolida bayon etamiz...

5-sinf adabiyot darsida berilgan maqollar mavzusini o'tishda o'quvchilarning bilimdonligi va ijodkorligini tekshirish uchun "Labirent maqol" topshirig'ini berish foydalidir. O'quvchilarga maqol, topshiriq, hikmatli so'zlar haqida qisqacha ma'lumot beriladi va o'qituvchi bitta maqolni doskaga yozadi. O'quvchilar maqolning oxirgi harfidan birinchi so'zi boshlanadigan yangi maqol topish topshirig'i beradi. "Labirent maqol"⁴⁷ topshirig'i quyidagicha bo'ladi:

Ilm - dilning chirog'i, Maktab – ilm chorbog'i.

Izzat tilasang, ko'p dema, Sihat tilasang, ko'p yema.

Aytilgan so'z – otilgan o'q.

Sabr tagi – sariq oltin.

Nonsiz yashab bo'lmas, gapni oshab bo'lmas.

So'qir ko'zga surmaning keragi yo'q.



TANQIDIY NAZAR, TAHLILIIY TAFAKKUR VA INNOVATSION G'OYALAR



Qozoni boshqaning qayg'usi boshqa.

Aqlli pakana, ahmoq darozdan yaxshi.


Ish bilganga bir tanga, gap bilganga o'n tanga.

Rejali ish – hamisha besh.

Axtargan topar.

Shamol bo'lmasa, daraxtning uchi qimirlamaydi.

Shu o'rinda harflarga maqol chiqmay qolsa, topishmoq yoki o'quvchining o'ziga hikmatli so'z yozish imkoniyatini ham berish kerakki, o'quvchi fikrlashdan to'xtab qolmasin. Tabiatda yangi fikrlarni yuzaga keltiruvchi "sehrli tayoqcha" yo'q, biroq har qanday o'quvchini kreativ fikrlashga va boshqa yechim topishi uchun yo'nalish berish mumkin. Uyga vazifa sifatida o'quvchilarga bitta hikmatli so'zlar yaratish va labirentga joylab kelish topshiriladi (ruchka bilan labirent chizsa ham bo'ladi). Namuna: qatra-qatra yig'ilib daryo bo'lur.





TANQIDIY NAZAR, TAHLILIIY TAFAKKUR VA INNOVATSION G‘OYALAR



Ezop masallarini o‘tishda esa Ezop masallari obrazlari qaysilar, degan savol beriladi. O‘quvchilar aytganlari doskaga yozib boriladi. Masalan, bo‘ri, laylak, baqalar, kiyik, eshak, burgut, zag‘cha, cho‘pon, ovchi va shu kabilar aytishadi. O‘quvchilarga endi ayganingiz bo‘yicha o‘zingiz mustaqil ertak tuzing, deb topshiriq beriladi. Har bir o‘quvchi ushbu topshiriq asosida ertak tuzadilar va tuzganini o‘qib beradilar. Bu topshiriq o‘quvchilarning ijodiy fikrlash hamda so‘zlash ko‘nikmasi shakllantirishda samara beradi.

“Qisqa tavsif” topshirig‘i. O‘quvchilarga “Fanorchi ota“ hikoyasida keltirilgan qahramonlarga tavsif berish topshirig‘i beriladi. Bu orqali o‘quvchilar hikoyadagi obrazlarning tasviri va ularning asardagi o‘rni bilan yaqindan tanishish imkoniga ega bo‘ladi.

QOSIM CHO‘LOQ

AHMAD

FANORCHI OTA

“Bolaning ko‘ngli poshsho” hikoyasi bilan tanishilgach, o‘quvchilarning ijodiy fikrlash qobiliyatini rivojlantirish hamda shaxsiy “men”ini baholash maqsadida “Ahmad, Qosim cho‘loq va men” mavzusida xarakterlar solishtirmasi yozib kelish topshiriladi.

Ahmadning xarakteri	Qosim xarakteri	Men

Xulosa qilib aytganda, o‘quvchilarni ijodiy fikrlashga yo‘naltiruvchi topshiriqlar berish orqali ularning tasavvur hamda tafakkur qila olish qobiliyati o‘stirib boriladi, o‘quvchi shaxsida ezgu axloqiy sifatlar shakllantiriladi.





TANQIDIY NAZAR, TAHLILiy TAFakkUR VA INNOVATSION G‘OYALAR



Foydalanilgan adabiyotlar:

1. <https://fayllar.org/kreativ-fikrlash-nima.html>
2. <https://fayllar.org/kreativ-va-tanqidiy-fikirlash-xususiyatlari-reja-kreativ-fikrl.html>
3. <file:///C:/Users/COMPUTER/Downloads/o-qituvchi-mahoratini-kreativ-yondoshuv-orqali-shakllantirish.pdf>
4. Qozoqboy Yo‘ldoshev, Muhayyo Yo‘ldosh. Adabiyot o‘qitish metodikasi. – T.: “G‘agur G‘ulom”, 2022.
5. Jamoliddin Nur. Adabiyotdan ochiq dars tashkil etish metodikasi. – T.: “Muharrir”, 2021.

